

BOLALAR ADABIYOTINING TOLMAS TADQIQOTCHISI

G‘ayipov Dilshod Qadambayevich
filologiya fanlari doktori, professor.
Urganch davlat universiteti
O‘zbek filologiyasi fakulteti dekani
E-mail: dilshod_gayipov@mail.ru

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘zbek ma‘rifatparvarlik adabiyoti, adabiy aloqalar va tarjimashunoslik, o‘zbek bolalar adabiyoti bo‘yicha yetuk olim Rahmatulla Barakayevning tadqiqotchilik faoliyati xususida qisqacha fikr yuritiladi. Uning o‘zbek bolalar adabiyoti yuzasidan olib borgan tadqiqotlari muxtasar tahlilga tortiladi. Olimning “Jonajonim, she‘riyat”, “O‘zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi”, “Tursunboy Adashboyev fenomeniga bir nazar” (hammualliflikda) kitoblari xususida fikr-mulohazalar bildirilgan. Adabiyotshunosning tadqiqotchilik mahorati ochib berilgan. Shuningdek, Rahmatulla Barakayevning murabbiylik faoliyati, xususan, Urganch davlat universitetida ilmiy-pedagogik mutaxassislar tayyorlash ishiga qo‘shgan hissasi ham yoritiladi.*

***Kalit so‘zlar:** adabiyotshunoslik, bolalar adabiyoti, Rahmatulla Barakayev, tahlil, talqin, tadqiqot, mahorat.*

Taniqli adabiyotshunos Rahmatulla Barakayevning ilmiy izlanishlari ko‘lami keng. U o‘zbek ma‘rifatparvarlik adabiyoti, adabiy aloqalar va tarjimashunoslik, o‘zbek bolalar adabiyoti borasida e‘tiborga molik tadqiqotlarni amalga oshirgan. Biroq bugungi kunda ilmiy jamoatchilik R.Barakayevni bolalar adabiyotining mohir tadqiqotchisi sifatida e‘zozlaydi, qadrlaydi.

Bolalar adabiyoti rivoji masalasi hamisha dolzarb muammolardan hisoblanib kelinadi. Ana shu adabiyotning tadqiqi muammosi ham adabiyotshunosligimizning yetakchi masalalaridandir. Zero ilmning bu tarmog‘i yelkasiga ulkan mas‘uliyatni olgan. Bolalar adabiyotining ham, bu adabiyotshunoslikning ham zimmasida barkamol avlod tarbiyasi masalasi turibdi. Iste‘dodli adabiyotshunos R.Barakayev bu vazifani mardonavor ravishda zimmasiga olgan va uni sharaf bilan uddalayotgan olimdir.

Rahmatulla Barakayev 10 dan ortiq monografiya va risolalar muallifi, qator kitoblarning nashrga tayyorlovchisi, respublika va xorij matbuotida 270 dan ortiq ilmiy maqolalari e‘lon qilingan yetakchi olimdir. U 60 dan ziyod respublika ilmiy anjumanlarida, 10 dan ortiq xorijiy anjumanlarda dolzarb mavzulardagi ilmiy ma‘ruzalari bilan qatnashgan. Olimning “Jonajonim, she‘riyat” (80-yillar o‘zbek bolalar she‘riyati haqida ba‘zi qaydlar), “O‘zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi”, “Tursunboy Adashboyev fenomeniga bir nazar” (hammualliflikda) monografiyalari, “Bolalar adabiyoti” darsligi (hammualliflikda) adabiyotshunosning yuksak ilmiy salohiyatidan darak beradi.

Rahmatulla Barakayevning 1997-yilda e‘lon qilingan. “Jonajonim, she‘riyat” nomli maqolalar to‘plami jamoatchilik tomonidan munosib e‘tirof etilgan edi.

Ushbu to‘plam “Bolalar uchun eng yaxshi asarlar” ko‘rik-tanlovida g‘olib deb topilgani bejiz emas. Zero olim 80-yillar o‘zbek bolalar she‘riyatining chinakam manzarasini ko‘rsata olgan. Olim yozadi: “Odatda, har qanday yangi ijtimoiy o‘zgarishlar davrida ma‘rifatparvarlik yo‘nalishi yetakchi o‘ringa chiqadi. Ma‘rifatparvarlik adabiyoti esa, ma‘lumki, bolalar adabiyotining sarchashmalaridandir”.¹ Darhaqiqat, adabiyotshunosning bu fikrlari ayni haqiqatdir. Shuningdek, olimning uzoq yillik izlanishlarining mahsuli hamdir.

R.Barakayev ushbu kitobda 80-yillar o‘zbek bolalar she‘riyatining namoyandalari, yangi vakillari ijodi xususida so‘z yuritadi. Bu davr adabiyotining yetakchilari bolalar she‘riyati badiiyatini yangi bosqichga olib chiqqani, mavzu ko‘lamini kengaytirgani, obrazlar olamini boyitganini aniq ilmiy dalillar asosida ko‘rsatib bergan, teran tadqiqotlar qilgan. Kitobdan o‘rin olgan “Gul terгани kirdik boqqa”, “Men nechun savaman O‘zbekistonni?”, “Mevasi shirin, danagi achchiq dori”, “Shakl ham izlanish mahsuli”, “Bolalikning tiyrak nigohi” maqolalari 80-yillar bolalar she‘riyatining haqiqiy qiyofasini belgilab bergani bilan ham muhim va qimmatlidir. Olim bu davr she‘riyati vakillarining to‘plamlari xususida fikr yuritarkan shunday yozadi: “Va nihoyat, bu to‘plamlarning kamchiliklari haqida og‘iz ochmagan ekanmiz, bu to‘plamga jamlangan asarlar har qanday kamchiliklardan holi degani emas. Biz ataylab kamchiliklar haqida gapirmadik. Umid qilamizki, yosh qalamkash do‘stlarimiz izlanish, badiiyat sari intilishning ilk pag‘onalarida ekanliklarini o‘zlari anglab yetadilar, izlanish-intilish mas‘uliyati ularning qalbiga bir umr oshno bo‘lib qoladi”.² Darhaqiqat, olim yanglishmagan edi. Adabiyotshunos ijodlari haqida fikr yuritgan shoirlarning aksariyati bugun ham bolalar adabiyotida munosib o‘ringa ega.

R.Barakayevning yana bir kitobi “O‘zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi” deb nomlanadi. Darhaqiqat, bu kitob XX asr boshlari o‘zbek bolalar adabiyotining maydonga kelish omillari, tarkib topish va shakllanish xususiyatlarini ilmiy tadqiq qilgani bilan ham e‘tiborlidir. Olim to‘g‘ri xulosaga kelganidek, o‘zbek bolalar adabiyotining shakllanishiga xalq og‘zaki ijodi, mumtoz adabiyotimiz, tarjima adabiyotining ta‘siri katta bo‘lgan. Adabiyotshunos Abdulla Avloniy ijodi xususida to‘xtalar ekan, pandnoma janrining adib ijodiga ta‘siri masalasini o‘rganadi. Iste‘dodli shoir, dramaturg, publitsist, pedagog Abdulla Avloniyning o‘zbek bolalar adabiyotiga munosib hissa bo‘lib qo‘shilgan maktab o‘qish darsliklari yaratgani, bu sohada o‘ziga xos boniy ekanligini adabiyotshunos tadqiq etadi va olim shunday xulosa qiladi: “Xullas, XX asr boshlari o‘zbek bolalar adabiyoti va uning yetakchi namoyandasi Abdulla Avloniy ijodini bolalar

¹ Barakayev R. Jonajonim, she‘riyat. T.: Cho‘lpon nashriyoti; 1997.4-bet

² Yuqoridagi kitob. 87-bet

adabiyotining o‘ziga xosliklari nuqtayi nazaridan tadqiq etish o‘zbek bolalar adabiyoti “Sovet hokimiyati yillarida tug‘ilib, voyaga yetgan va kichkintoylarning katta adabiyotiga aylangan...” deyarli traditsiyasi bo‘lmagan novator adabiyot” emas, balki o‘z an‘analariga, taraqqiyot qonuniyatlariga, Avloniydek yetakchi namoyandalariga ega bo‘lgan, bir qancha mustaqil yo‘nalishlardan tarkib topgan o‘ziga xos adabiyot ekanini tasdiqlaydi.³ Darhaqiqat, R.Barakayevning bu xulosasi o‘zbek bolalar adabiyotiga berilgan bahodir. Shu bilan birgalikda, olimning ko‘p yillik izlanishlari mahsulidir.

Ma’lumki, o‘zbek bolalar adabiyotida Tursunboy Adashboyevning munosib o‘rni bor. Olim ta’biricha, bolalar adabiyotida fenomen darajasiga erishgan bu shoir ijodini R.Barakayev o‘z shogirdi B.Ashurov bilan chuqur tahlil qilgan. Aytish muhimki, olimlar Tursunboy Adashboyevni fenomen ijodkor ekanligini isbotlay olishgan. Shoir she’rlaridagi an’anaviylik, o‘ziga xoslik masalalari teran tahlil etilgan. Ijodkor she’rlaridagi ma’rifiy-tarbiyaviy masalalar, obrazlar silsilasi tadqiq qilingan. Bir so‘z bilan aytganda, T.Adashboyevning badiiy mahorati to‘laqonli ochib berilgan. “...bolalar adabiyoti yosh avlodni eng yaxshi insoniy tuyg‘ular ruhida tarbiyalashga, komil inson bo‘lib yetishuviga, bolaning beg‘ubor qalbida go‘zallikni anglash va asrab avaylash tuyg‘ularini shakllantirishga mas’uldir...”

Tursunboy Adashboyev ushbu ulug‘vor maqsadlarga xizmat qiladigan barkamol asarlarga boy adabiyotimiz adabiy an‘analarini bugungi adabiyotimizda muvaffaqiyat bilan davom ettirayotgan o‘ziga xos ijodkor ekanligi shoirning deyarli barcha asarlarida yorqin namoyon bo‘ladi”.⁴ Darhaqiqat, yuqoridagi fikrlar Tursunboy Adashboyev ijodiga berilgan munosib baho edi.

R.Barakayevning boshqa tadqiqotlari ham ilmiy dalillarga boyligi, dolzarb masalalarga bag‘ishlangani bilan qimmatlidir.

Ustoz Rahmatulla Barakayev olim bo‘lish bilan birga jonkuyar, bag‘rikeng, o‘ziga xos notiqlik fazilatiga ega murabbiy hamdir. Olim Urganch davlat universiteti talabalari, tadqiqotchilariga bir necha marta Toshkent shahridan tashrif buyurib, ma’ruza mashg‘ulotlari, mahorat darslari o‘tdi, Xorazm televideniyesida chiqishlar qildi. Shu bois ham xorazmlik tadqiqotchilar, talaba-yoshlar R.Barakayevni ustoz, deya qadrlashadi, e’zozlashadi. Yana shuni alohida ta’kidlash o‘rinliki, xorazmlik tadqiqotchilar o‘z vaqtida R.Barakayev to‘g‘ri maslahatlar berganligini, yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatganligini mamnuniyat bilan eslashadi, ustozga minnatdorlik so‘zlarini aytishadi. R.Barakayevning Xorazmga tashrifi esa voha shoirlariga chinakam bayramga aylanadi. Xorazmlik bolalar shoirlari Sodiqjon

³ Barakayev R. O‘zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi. T.: “Fan”, 2004. 156-bet

⁴ Barakayev R., Ashurov B. Tursunboy Adashboyev fenomeniga bir nazar. T.: “Akademnashr”, 2014. 60-bet

Inoyatov, Erpolat Baxt va boshqalar ustoz tashrifini ijodiy uchrashuvlarga aylantirib yuborishadi.

Biz xorazmlik tadqiqotchilar 2023-yilning aprelini zo‘r xursandchilik bilan eslaymiz. Ustoz R.Barakayev va boshqa yetakchi olimlar Xorazmga tashrif buyurdilar, ma‘ruza mashg‘ulotlari olib bordilar, ulug‘ ziyoratgohlarda bo‘ldilar. Yurtimizning tinchligini, yosh olimlarning, talaba yoshlarning kamolotini Oллоhdan tilashdi. Inshaolloh, ahli ilmlarning bu duosi ijobat bo‘lg‘usidir.

Xullas, taniqli olim, jonkuyar murabbiy, beg‘ubor, bolalarcha samimiy inson Rahmatulla Barakayev ilmiy ijodi o‘zbek adabiyotshunosligida munosib o‘ringa ega. U chinakam ma‘noda bolalar adabiyoti tadqiqotchilarining homiysidir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Barakayev R. Jonajonim, she‘riyat. T.: Cho‘lpon nashriyoti, 1997. 4-bet
2. Barakayev R. O‘zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi. T.: “Fan”, 2004. 156-bet
3. Barakayev R., Ashurov B. Tursunboy Adashboyev fenomeniga bir nazar. T.: “Akademnashr”, 2014. 60-bet